LIRIK QAHRAMON MUAMMOSINING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI VA TILAK JO‘RA IJODIDA LIRIK QAHRAMON MASALASI

Giyazova Shahnoza Kamolovna
ORCID: 0009-0005-0377-409X
giyazovashahnoza@gmail.com
BuxDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik vakili Tilak Jo‘ra ijodida lirik qahramonning badiiy-estetik xususiyatlari, poetik vazifalari va obrazlar tizimidagi o‘rni tahlil qilingan. Lirik qahramon tushunchasining nazariy asoslari, o‘zbek adabiyotida uning tarixiy taraqqiyoti hamda turli adabiy davrlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritilgan. Shoir she’riyatida Vatan va xalq, inson hamda tabiat obrazlarining lirik qahramon ruhiyati bilan uzviy aloqasi ochib berilgan. Shuningdek, tabiat hodisalari, mavsumiy o‘zgarishlar va poetik detallarning ramziy ma’nolari, ularning lirik qahramon kechinmalarini ifodalashdagi badiiy-estetik ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tilak Jo‘ra, lirik qahramon, zamonaviy o‘zbek she’riyati, poetik obraz, tabiat tasviri, ramziylik, Vatan obrazi, xalq obrazi, badiiy-estetik xususiyat, obrazlar tizimi

THE STUDY OF THE LYRICAL HERO IN LITERARY STUDIES AND THE ISSUE OF THE LYRICAL HERO IN THE WORKS OF TILAK JO‘RA

Giyazova Shahnoza Kamolovna
ORCID: 0009-0005-0377-409X
giyazovashahnoza@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: This article analyzes the artistic and aesthetic features of the lyrical persona, its poetic functions, and its place within the system of images in the works of Tilak Jo‘ra, a prominent representative of modern Uzbek poetry. It explores the theoretical foundations of the concept of the lyrical persona, its historical development in Uzbek literature, and the distinctive ways in which it manifests itself across different literary periods. The article examines the close relationship between images of the homeland and the people, human beings and nature, and the inner world of the lyrical persona in the poet’s works. Furthermore, it analyzes the symbolic meanings of natural phenomena, seasonal changes, and poetic details, as

(cc) BY

well as their artistic and aesthetic significance in expressing the experiences of the lyrical persona.

Keywords: Tilak Jo‘ra, lyrical persona, modern Uzbek poetry, poetic image, depiction of nature, symbolism, image of the homeland, image of the people, artistic and aesthetic features, system of images

She’riyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu - lirik qahramondir. U shoirning ichki olami, hayot haqidagi qarashlari, kechinmalari va orzu-umidlarini ifoda etuvchi badiiy obrazdir. Lirik qahramon poetik matnda subyektiv ruhni, hissiyot va estetik bahoni ifodalab beradi. Adabiyotshunoslikda bu tushuncha chuqur tahlil qilinib, turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Lirik qahramon tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari XX asr adabiyotshunosligida rivoj topgan. Bu borada, avvalo, rus formalistlari va strukturalistlari - Viktor Shklovskiy, Boris Eyxenbaum, Roman Yakobsonlar asosiy nazariy yo‘nalishlarni ishlab chiqdilar. V.V. Vinogradov lirik qahramonni “mualliflik niqobi” deb talqin qiladi[20]. Unga ko‘ra, muallif asar orqali o‘zining emotsional dunyosini lirik obrazda berar ekan, bu obraz mustaqil poetik subyektga aylanadi. M.M. Baxtin esa lirikaning dialogik tabiati haqida gapirar ekan, lirik qahramon orqali muallif va jamiyat o‘rtasida ichki muloqot yuz berishini ta’kidlaydi[21]. I.R. Galperin esa lirik nutqning strukturasi, emotsional-estetik jihatlari orqali lirik qahramonning til vositalarida qanday ifodalanganini tadqiq qilgan. O‘zbek adabiyotida adabiyotshunos olim D.Quronovning: “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da keltirilishicha: “lirik qahramon - lirikadagi subyekt ko‘rinishlaridan biri, muallifning qalb kechinmalarini, o‘y-tuyg‘ularini ifodalash shakli. Terminning o‘ziyoq, ya’ni “qahramon” deyilishi lirik qahramon shoirning real “men”i emas, balki uning asosida yaratilgan “men” ekanligini anglatadi”[22].

Adabiy jarayonda shoir yoki yozuvchining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari eng ko‘p lirik janrlarda o‘z ifodasini topadi. Lirikada “men” obrazining markaziy o‘rin tutishi ushbu janrda lirik qahramon tushunchasini shakllantirgan. Lirik qahramon shoirning ruhiy holati, estetik qarashlari va dunyoqarashini badiiy tarzda ifodalovchi timsoldir.

Lirik qahramon - bu shoir yoki adib tomonidan yaratilgan, asarda ichki kechinmalar, fikrlar, tuyg‘ular orqali o‘zini namoyon qiladigan obrazdir. U har doim shoirning o‘z pozitsiyasini ifodalaydi, ammo to‘g‘ridan to‘g‘ri shoirning o‘zi emas, balki u orqali yozuvchining g‘oyaviy-estetik qarashlari ifodalanadi.

Lirik qahramon asarda ikki vazifani bajaradi:

1. Shoirning his-tuyg‘ularini ifodalaydi.

[20] Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. – M.: Nauka, 1963.
[21] Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M.: Iskusstvo, 1979.
[22] Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010

(cc) BY

2. Umuminsoniy g‘oyalarni ramziy tarzda bayon etadi.

O‘zbek adabiyotida lirik qahramon Sharq mumtoz she’riyati davridayoq vujudga kelgan. Alisher Navoiyning g‘azallarida lirik qahramon komil insonni, muhabbatni, ilohiy haqiqatni izlovchi obraz sifatida gavdalanadi. Hazrat Navoiy “men”i bilan shunchaki muallif emas, balki komil inson, ilohiy haqiqatni izlovchi oshiq qalb gapiradi. Buning yorqin misoli sifatida “Farhod va Shirin” dostonining qahramonlarini keltirsh mumkin. Bu asarda nafaqat ishq, sevgi-muhabbat, balki u orqali iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g‘ayrat, kamtarinlik, adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shirinso‘zlik, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Allohga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar, pokliklar yig‘indisi tasvirlanadi. Ishqning o‘rni ko‘ngilda bo‘ladi. Ko‘ngil ishq tufayli poklanadi. Ko‘ngil poklansa, ishq yanada o‘tli, nurli bo‘ladi, ilohiy mohiyat kasb etadi. Tasavvufga ko‘ra ko‘ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o‘rganiladi. Farhodning ustozlaridan kasb o‘rganishini eslaylik. Ular orqali shakllantirilgan lirik qahramonlar shunchaki hunarmand ustalar obrazi emasdi. Boniy - ko‘ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o‘rgatgan piri komil. Moniy - Alloh ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz. Qoran - ko‘ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan murshid. Bu uchta lirik qahramon - ustozlar o‘rgatgan ilmi tufayli Farhod komil inson qiyofasida shakllanadi. Asardagi boshqa lirik qahramonlar - Suhaylo, Suqrotdek ulug‘lardan ishq sirlarini, poklanish ilmini o‘zlashtirgan oshiq hayotlik davrida o‘z botinida dev, ajdaho, arslondek bo‘lgan nafsoniy illatlarni yenga bildi, kundalik hayotda duch keladigan o‘z nafsiga qul Xusrav, Sheruya kabi odam qiyofasidagi shaytonlarga bas kela oldi. Bir so‘z bilan aytganda, u insoniy o‘zligini yo‘qotmay, poklanish yo‘lida davom etadigan, poklanishga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanagan lirik qahramondir. Shu ma’noda Farhod o‘zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir[23].

XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ma’rifatparvarlik adabiyoti taraqqiyparvar, xalqparvar ziyolilar tomonidan yaratilgan adabiyot bo‘lib, uning bosh maqsadi - xalqni o‘qitish, uyg‘otish, jaholat va zulmga qarshi kurashish, zamonaviy tafakkurni shakllantirish edi. Bu davr adabiyotida lirik qahramon quyidagi yangi qiyofalarda shakllandi:

Uyg‘oq tafakkur egasi sifatida xalqni o‘qitishga, bilimli bo‘lishga chaqiradi. U jaholatga, nodonlikka qarshi kurashadi. Avaz O’tarning “Har tilni biluv emdi….”, “Maktab” she’rlari[24], So‘fizodaning “O‘qing, onalar ” she’rlarida ushbu qahramonlar gavdalantirilgan.

[23] Yo‘ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo‘ldoshbekov Jalolbek. 9-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2019.-B:86

[24] Yaxshiyev Anvar. Avaz o'tarning ma'rifiy-axloqiy qarashlari. - maqola

(cc) BY

Jamiyat dardini o‘z yuragidan kechiruvchi obraz - bunday lirik qahramon xalqning og‘ir ahvolini o‘z yurak og‘rig‘i deb biladi, adolat, taraqqiyot, tenglik g‘oyalarini ilgari suradi. Avaz O‘tarning “Fidoyi xalqim”, T.Farog‘iyning “Tor ko‘ngullik beklar…”[25] g’azallaridagi lirik qahramonlar mana shu g‘oyalarni ilgari surgan.

Jamiyatdagi illatlarni satirik kulgi orqali fosh qiluvchi tanqidchi - Lirik qahramon amaldorlar, nodon mullalar, o‘z xalqiga befarq kimsalarni keskin tanqid qiladi. Muqimiyning “Tanobchilar”, “Sayohatnoma”, “Zavqiyning “hajvi ahli rasta”[26] kabi she’rlarida ushbu maqsad singdirilgan.

XX asr o‘zbek she’riyatida lirik qahramon jamiyatdagi o‘zgarishlar, siyosiy tuzum tufayli ruhiy tushkunliklar, milliy uyg‘onish kayfiyatlarini ifoda etadi. Avaz O‘tar, So‘fizoda, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Usmon Nosir, Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Furqat kabi shoirlar ijodida bu an’ananing yangi bosqichi vujudga keldi. Ko‘p hollarda o‘quvchi lirik qahramonni muallifning o‘z “men”idek qabul qiladi. Aslida esa bu timsol muallifning ichki ovozini, ya’ni badiiy generalizatsiyadan o‘tgan obrazini ifodalaydi. Lirik qahramon - hissiy jihatdan kuchli, o‘zgaruvchan, ichki monolog orqali gapiruvchi qahramondir.

Lirik qahramonning funksional xususiyatlari:

a) lirik qahramon - faqat voqeani bayon etuvchi emas, balki holatni, kechinmani yetkazuvchi vositadir.

b) estetik-falsafiy vazifa targ‘ibotchisi - inson hayoti, go‘zallik, umr mazmuni kabi mavzularda fikr yuritadi. Masalan, Erkin Vohidovning “O‘zbegim” she’rida lirik qahramon millat baxtini kuylovchi, ajdodlar siymosi, buyuk tariximizni qadrlovchi, undan faxrlanish, iftixor tuyg‘usini ulashuvchi, xalq taqdiriga daxldorlik hissini o‘zida mujassam etgan timsoldir. Bu obraz - poetik “men”ning kengaygan, ijtimoiylashgan ko‘rinishidir

c) Jamiyatda faol, yetakchi inson bo‘lishga da’vat etuvchi obraz. Ko‘pincha xalq qahramonlari, tarixiy shaxslar siymosi gavdalantirilgan asarlardagi lirik qahramonlarda bunday vazifa yuklanadi. A.Oripovning “Sohibqiron” dramasi, Shuhratning “Mardlik afsonasi” balladasidagi obrazlar orqali millat, xalq taqdiriga befarq bo‘lmaslik, uning tinchligi, farovonligi uchun kurashish g‘oyasi singdirilgan.

Lirik qahramon she’riyatdagi boshqa elementlar bilan chambarchas bog‘langan:

Tabiat tasviri: tabiat hodisalari lirik qahramon kechinmalarini kuchaytirish vositasidir.

Ohang: lirikaning musiqiyligi qahramon ruhiy holatiga moslashadi.

Uslub: lirikaning obrazlilik darajasi ham qahramonning matnda yorqin namoyon bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi.

[25] https://tafakkur.net

[26] https://tafakkur.net

(cc) BY

Lirik qahramon - lirikaning markaziy figuralaridan biri bo‘lib, muallif ruhiyatining badiiy ifodasidir. Uning o‘rganilishi nafaqat adabiy asarning ichki mazmunini ochib beradi, balki shoir estetik idealini tushunishga xizmat qiladi. Bugungi kunda lirik qahramon obrazining o‘zgarishi - adabiyotning dinamik taraqqiyotidan dalolat beradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining zabardast vakili, xalqimiz orasida “o‘zbek sanduvochi” deya tanilgan Tilak Jo‘ra ijodida ham lirik qahramon masalasini o‘rganish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri. Chunki shoir o‘z she’rlarida tasvirlagan obrazlar turli qiyofalarda, har xil funksional xususiyatlarni, ezgu maqsad va g‘oyalarni o‘zida umumlashtirgan holda uchraydi. Professor Ibrohim G‘afurovning fikricha, lirik qahramon - shoirning ichki olami va jamiyat o‘rtasidagi estetik ko‘prikdir[27]. Tilak Jo‘ra ijodi mana shu ko‘prik vazifasini to‘laqonli bajara olgan badiiyatning go‘zal namunalaridir. Unda yashayotgan lirik qahramonlar orqali muallif o‘z zamonasi, xalqining kechinmalari, tarixiy ruhi haqida teran mushohada yuritadi. Uning ijodida lirik qahramonning gender pozitsiyasi, ayol va erkak lirikasida shaxsiylik va ijtimoiylik uyg‘unligi, maqsad va vazifalari, kitobxonning qalbini boyitadigan, ruhiyatiga estetik ta’sir qiladigan baxt, umid, ishonch, vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, vafo, mehnatsevarlik, fidoyilik tuyg‘ularining yangicha talqinlarini yaratishdagi modernistik izlanishlari o’zining go‘zal badiiy ifodasini topgan. Shoir ijodida lirik qahramon poetik matnning yuragi bo‘lib, u orqali shoirning dunyoqarashi, estetik ideal, davr ruhi va ichki iztiroblari ifodalanadi. Shu bilan birga, yangi ijtimoiy-estetik kontekstda yangicha tahlillarni talab etmoqda.

Shoir ijodida lirik qahramon turli obrazlarda namoyon bo‘ladi. U goh yomg‘ir, goho chaqmoq, sel bo‘lib, gohida esa bug‘doy, maysa, bo‘zto‘rgay bo‘lib, yo ostonada urushga ketgan o‘g‘lini kutayotgan ona, yoki dalasida qolib ketgan dehqon bo‘lib, ba’zan sovuqda qovjiragan yaproq, ba’zan esa mavjlanib oqayotgan daryo bo‘lib she’rga badiiy-estetik ruh olib kiradi.

Tasvir planiga ko‘ra ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Vatan va xalq obrazi;
2. Inson obrazi;
3. Jonivorlar obrazi;
4. Narsa-buyumlar obrazi[28].

Vatan va xalq obrazi tasvirlangan she’rlariga o‘zi tug‘ilib o‘sgan “Sayot” qishlog‘ining xushmanzara bog‘-u rog‘lari, bolaligi o‘tgan so‘qmoqlar bilan birga Vatanimiz - O‘zbekiston nomi kuylangan, madh etilgan “Shu osmon ostida”[29], “Chayqalib yotibdi nurli bir chaman…”(O‘sha asar, 43-b), “Ona uy” “Senga

[27] G‘ofurov I. Buyuk adibning barhayot merosi. -Toshkent: Yangi O‘zbekiston, 2020
[28] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. – B.109
[29] Tilak Jo‘ra. Saylanma. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. – 20-b

(cc) BY

keltirdim bir dona chanoq", "Silkinib qoldilar ortda teraklar"(45-b), "Ko'zlarimning qorachig'i - qora yer"[30] kabi she'rlari mansub. Bunday she'rlarga Vatan obraziga sevgi, mehr, hasrat, hayrat, qayg'u, muhabbat, haqiqat kabi tuyg'ular singdirib yuborilgan.

Tilak Jo'ra ko'pincha inson obrazida xalqona timsollarni yaratadi. Adabiyotning asosiy tasvir obyekti - insondir. Zero, adabiyotshunos olim Izzat Sulton ta'kidlab o'tganidek: "Inson adabiyotning tasvir predmetidir. Inson tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q. "Inson tasviri"- butun boshli odamning ichki dunyosi, uning kechinmalari tasviri demakdir"[31]. Shoir she'rlari tahlili jarayonida tarixiy shaxslar - Amir Temur, Yannis Ritsos - II Jahon urushi qahramoni; adabiy qahramonlar - To'maris, Shiroq, Alpomish, Barchinoy; mumtoz adabiyot vakillari - Navoiy, Bobur, Mashrab, Umar Hayyom, zamondosh shoirlar - Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Nozim Hikmat; xalq artistlari - Shukur Burhon, shoirning ustozlari - N.Komilov, G'aybulla as-salom bilan bir qatorda yurtdoshlari, qishloqdoshlari, do'stlari, qarindoshlari (otasi, amakisi) obrazi tasviriga guvoh bo'lamiz. Bulardan tashqari, "shudgorda hansirayotgan dehqon", "boshoq terayotgan kampir", "o'rimga chiqqan qiz", "ot choptirayotgan yigitlar", "ostonada urushga ketayotgan o'g'lini kuzatayotgan/kutayotgan ona", "beshikda yotmagan bola" kabi obrazlar ham ko'p uchraydi. Bu lirik qahramonlarda xalqona ruh, mehnatkashlik, hayotsevarlik, mardlik, jasorat, sevgi-muhabbat tuyg'ulari yo'g'rilgan.

Jonivorlar obrazini ham quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a))hayvonlar obrazi - ilon, yo'lbars, bo'ri, tuya, ot;

b)qushlar obrazi - bedana, qushcha, burgut, bo'zto'rg'ay, laylak;

d) *hasharotlar obrazi* - kapalak, ninachi, chigirtka.

Tilak Jo'ra jonivorlar obrazi orqali lirik qahramonning kayfiyatini, holatini ifodalashda foydalangan:

Shamoldan cho'chigan kapalakday
Juda qo'rqaman:
Birdan
Miyamni g'ijimlagan
Yovuz xayolday[32].

Ushbu she'rdagi kapalak lirik qahramonning nochor, ojiz holatini jonli ifodalash uchun keltirilgan. Bedana obrazi esa, aksincha, lirik qahramonning o'ynoqi xarakterini, xushnud kayfiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadi:

Bedazorda bedana
Bo'lib-bo'lib sayraydi,
Qo'rni qo'zg'arkan ona,

[30] Tilak Jo'ra. Saylanma. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
[31] Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Тошкент: O'qituvchi NMIU, 2005. 54- bet
[32] Tilak Jo'ra. Saylanma. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. – 126-b

(cc) BY

Tinglab uni yayraydi[33].

Tilak Jo‘ra she’riyati o‘ziga xos lirizm, nozik ruhiy kechinmalar va chuqur falsafiylik bilan ajralib turadi. Shoir lirik qahramonining ichki holatini ochishda, uning ruhiy kechinmalari va hissiyotlarini obrazli ifodalashda badiiy detallar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiatdagi unsurlar, ranglar, tovushlar, mavsumiy holatlar orqali shoir lirik qahramon kechinmalarini nozik tarzda ochib berishga intiladi.

Tilak Jo‘raning she’rlarida qo‘llangan badiiy detallarning eng muhim xususiyati shundaki, ular bevosita lirik qahramon ruhiyatiga uyg‘unlashgan. Detal obrazlar sifatida uchraydigan yaproq - armon, chorasizlik; boshoq - to‘kin-sochinlik, baraka; o‘roq - mehnatsevarlik; teraklar - shirin xotiralar; daraxt - sabr, ulug‘vorlik; maktub - iliq va samimiy tuyg‘ular mujassami; ostona - sadoqat, e’tiqod; yozuv mashinkasi - birdamlik, ahillik kabi ezgu tuyg‘ular va fazilatlarni ifodalash uchun qo‘llangan.

O‘ttiz besh farzandli yozuv mashinkam -
Hislarimning erkin sirdoshi!
To‘lqinlarga to‘liq peshonang -
Birdamlikning buyuk timsoli[34]

Bu she’rda yozuv mashinkasidagi 35 ta harf ramziy ma’noda bir maqsad yo‘lida birlashib harakat qilgani va shuning natijasida ulkan ishlarni - yirik asarlarni maydonga keltirgani uchun “birdamlikning buyuk timsoli”ga aylantirilgan. Harfning farzandga tashbehlanishi esa oilada aka-ukalar bir-biri bilan ahil va mehr-oqibatli bo‘lishiga ramziy ishora qilgan.

“Subhidamda tabiatning rangi bir bo‘lak” she’rida quyoshning chiqishi bilan uyg‘ongan tabiat manzarasi lirik qahramonning umidli, ruhiy uyg‘onish holatini ifodalaydi. “Quyosh nurlari”, “yomg‘ir yog‘ishi”, “chopqillab chiqqan boychechak”, “yerga tushgan yulduzlar” - shabnam, “gullar - kamalak” qushlarning sayrashi - bularning barchasi lirik subyekt qalbida sodir bo‘layotgan ichki uyg‘onish jarayonining, baxt va umid tuyg‘usining tashqi ifodasidir.

Ushbu detallar kichik, ba’zan ahamiyatsizdek tuyulsa-da, shoirning peyzaj yaratish ishida muhim rol o‘ynaydi. She’r matnida bu detallarni lirik qahramondan uzib, ajratib bo‘lmaydi. Chunki yaratilayotgan obrazning ichki va tashqi dunyosini tasvirlashda, tabiat tasvirini yaratishda umumlashma obrazning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Lirik asarlarda jonli va jonsiz narsalar tasviri lirik qahramon va manzara zamiridagi inson obrazining ayrim qirralari aks etadi, ularning birlashuvi natijasida badiiy umumlashma - inson obrazi tushuniladi va u adabiyotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Umumlashma obraz yaratish ijodkordan bir qancha shartlarni bajarishni talab etadi. Bunda shoir tasvirlanayotgan makon va zamon, hayotiy voqelik, ma’lum

[33] Tilak Jo‘ra. Saylanma. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. – 27-b
[34] Tilak Jo‘ra. Saylanma. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. – 70-b

(cc) BY

mantiq asosida o‘zaro bog‘langan, biri ikkinchisiga ehtiyoj sezadigan, biri ikkinchisini mazmunan to‘ldiradigan obrazlar sestemasining ichki tarkibini shakllantirishi kerak bo‘ladi. She’rdagi bir-ikki obraz emas, barchasining qat’iy o‘rni bo‘lishi, lirik asarning pafosini yuzaga keltiruvchi umumiy quvvat manbayi bo‘lishi lozim[35]

Bundan tashqari, Tilak Jo‘ra she’riyatida mavsumiy detallar - bahor, kuz, qish kabi tabiat hodisalari ham lirik qahramon holatining ramziy ifodasi sifatida qatnashadi. Bahorning tasviri ko‘pincha yangi his-tuyg‘ular, muhabbat, umid bilan bog‘liq bo‘lsa, kuzgi obrazlar ayriliq, xotira, armon va dard ba’zan esa, aksincha, lirik qahramon umrining hosilga kirgan davri - eng yetilgan davrini ham ham ifodalaydi. Shu jihatdan qaralganda, detal shoir she’rlarida emotsional fonni kuchaytiruvchi, lirik holatni obrazli tarzda beruvchi badiiy vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, Tilak Jo‘ra she’riyatida detal - bu oddiy tasvir emas, balki lirik qahramon ruhiyatini ifodalovchi ramzdir. Ular orqali shoir o‘quvchini lirik qahramonning ichki dunyosiga yetaklaydi, o‘z holatini, fikrlarini, murakkab tushunchalarni jonli tasvirlaydi, his qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. - M.: Nauka, 1963.

2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. - M.: Iskusstvo, 1979.

3. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent: Akademnashr, 2010

4. Yo‘ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo‘ldoshbekov Jalolbek. 9-sinf adabiyot darsligi. - Toshkent: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2019.-B:86

5. Yaxshiyev Anvar. Avaz o'tarning ma'rifiy-axloqiy qarashlari. - maqola

6. https://tafakkur.net

7. https://tafakkur.net

8. G‘ofurov I. Buyuk adibning barhayot merosi. -Toshkent: Yangi O‘zbekiston, 2020

9.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - T.: Navoiy universiteti, 2018. - B.109

10. Tilak Jo‘ra. Saylanma. - Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.

11. Boboqulova Uljon. Lirikada obraz tasnifi va talqini. Dissertatsiya. - 2-bet

[35] Boboqulova Uljon. Lirikada obraz tasnifi va talqini. Dissertatsiya. - 2-bet

(cc) BY